SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 18-aprel | 75-7-106-Q/25 | Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 15-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora- tadbirlar to‘g‘risida” PF-57-son Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 122-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

Bojxona ma’muriyatchiligining shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, bojxona sohasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida:

QAROR QILAMAN

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 15-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni ijrosini ta’minlash haqida”gi 122-7-0-Q/25-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hokimining ayrim qarorlari ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari I.Mamatov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **G.Alimova**

Shahar hokimi **G. Alimova**

Kattaqo‘rg‘on shahar hokimining
2025-yil 18-apreldagi
75-7-106-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Shahar hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim

Hujjatlari

1. Shahar hokimining 2017-yil 20-noyabrdagi “Viloyat hokimining 2017-yil 10-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabrdagi “Farmatsevtika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-5229-son Farmoni” to‘g‘risidagi 665-Q-sonli qarori to‘g‘risida”gi 1643-Q-sonli qarorining 2-bandi.

2. Shahar hokimining 2017-yil 13-dekabrdagi “Viloyat hokimining 2017-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi PF-5269-son Farmoni” haqidagi 724-Q-son qarori to‘g‘risida”gi 1756-Q-sonli qarorining ikkinchi ilovasi 2-bandi.

3. Shahar hokimining 2018-yil 23-apreldagi “Viloyat hokimining 2018-yil 14-apredagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-son Farmoni” haqidagi 238-Q-son qarori to‘g‘risida”gi 727-Q-sonli qarori.

4. Shahar hokimining 2018-yil 23-apreldagi “Viloyat hokimining 2018-yil 14-apredagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3665-son qarori” haqidagi 239- Q-son qarori to‘g‘risida”gi 729-Q-sonli qarori.